



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

Vol.08 № 3/2026



UDK: 811.581.11

ORCID ID: 0009-0008-6297-7243

**XITOIY TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z TURKUMLARI MASALASI VA 把 “BA”
IYEROGHLIFI**

**ПРОБЛЕМАТИКА ЧАСТЕЙ РЕЧИ В КИТАЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И
ИЕРОГЛИФ 把 “BA”**

**THE PROBLEM OF PARTS OF SPEECH IN CHINESE LINGUISTICS AND
THE CHARACTER 把 “BA”**

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD

ziyoda1978@gmail.com, +998 901867757

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoy tilida so‘zlarning polifunksionalligi masalasi hamda uning til tizimida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Xitoy tili leksikasiga xos muhim jihatlardan biri — so‘zlarning turli grammatik va semantik vazifalarda qo‘llanish qobiliyati bo‘lib, bu holat tilning funksional moslashuvchanligini ta‘minlaydi. Maqolada polifunksionallik nafaqat sintaktik tuzilmalarda, balki leksik birliklarning ma‘nosi va qo‘llanishida ham aks etishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot almashinuvi jarayonida insonlar fikrini ifodalashda turli til vositalaridan foydalanishi natijasida polifunksionallik holati yanada kengayib borayotgani ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda xitoy tilida keng qo‘llaniladigan 把 “ba” iyeroglifining leksik-grammatik xususiyatlari, uning polifunksional tabiati hamda turli nutqiy vaziyatlardagi qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Natijada, 把 “ba” birligi xitoy tilida semantik va sintaktik jihatdan moslashuvchan bo‘lib, tilning funksional imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim lingvistik birliklardan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: polifunksionallik, 把 “ba” iyeroglifi, so‘z turkumlari, qarash, kategoriya, fe‘l, gap strukturasi, grammatika.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема полифункциональности слов в китайском языке и особенности её проявления в языковой системе. Одной из важных характеристик лексики китайского языка является способность слов

выполнять различные грамматические и семантические функции, что обеспечивает функциональную гибкость языка. В статье подчеркивается, что полифункциональность проявляется не только в синтаксических структурах, но и в значении лексических единиц и особенностях их употребления. Кроме того, отмечается, что в условиях современного информационного обмена люди стремятся выражать свои мысли с помощью различных языковых средств, в результате чего явление полифункциональности получает всё более широкое распространение. В исследовании также анализируются лексико-грамматические особенности иероглифа 把 (“ba”), широко употребляемого в китайском языке, его полифункциональная природа и возможности использования в различных речевых ситуациях. В результате обосновывается, что единица 把 (“ba”) обладает семантической и синтаксической гибкостью и является одной из важных лингвистических единиц, отражающих функциональные возможности китайского языка.

Ключевые слова: полифункциональность, иероглиф 把 “ba”, части речи, подход, категория, глагол, структура предложения, грамматика.

Annotation: This article examines the issue of polyfunctionality of words in the Chinese language and the specific features of its manifestation within the linguistic system. One of the important characteristics of Chinese vocabulary is the ability of words to perform various grammatical and semantic functions, which ensures the functional flexibility of the language. The article emphasizes that polyfunctionality is reflected not only in syntactic structures but also in the meanings of lexical units and in the peculiarities of their usage. In addition, in the context of modern information exchange, people tend to express their ideas using different linguistic means, which contributes to the expansion of polyfunctional phenomena in language. The study also analyzes the lexical and grammatical features of the character 把 (“ba”), which is widely used in Chinese, its polyfunctional nature, and its usage in different communicative contexts. As a result, it is argued that the unit 把 (“ba”) demonstrates semantic and syntactic flexibility and represents one of the important linguistic elements that reveal the functional potential of the Chinese language.

Key words: polyfunctionality, the character 把 (“ba”), parts of speech, approach, category, verb, sentence structure, grammar.

KIRISH. Til – jamiyat hodisasi bo‘lib, odamlar ishlatayotgan til jamiyatning har bir a‘zosiga ta‘sir qilmay qolmaydi. Chunki shu orqali ular muloqot qiladilar, axborot almashadilar. Bir necha yillik tarixga ega bo‘lgan xitoy madaniyati xitoyliklarning tafakkuriga, o‘ziga xos fikrlashiga ta‘sir ko‘rsatgan. Odamlar qalbidagi barcha o‘ylayotgan narsalarni til orqali to‘laligicha ifoda etolmagan. Shu bois so‘zlarni ko‘p ma‘noda ishlatish jarayoni vujudga kelgan. Xitoycha so‘zlaridagi polifunksionallik hodisasi odamlarga tilni yanada jonli tushunishga yordam beradi.

Xitoy tilshunosligida 1953-1955-yillar oralig‘ida xitoy tilidagi so‘z turkumlari masalasi bo‘yicha qizg‘in bahs munozara bo‘lib o‘tgan. Buning natijasida xitoy tilidagi mustaqil so‘z turkumlari bo‘linishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hozirda xitoy tilshunosligida so‘z qaysi so‘z turkumriga tegishliligi yuzasidan uchta qarash mavjud.

Birinchisi, 黎锦熙 Li Szingsining fikriga ko‘ra xitoy so‘zlari bir kategoriyadan ikkinchiga o‘ta oladi. Uning asosiy nazariyasi so‘z turkumlarining konversiyaga uchrashi hodisasiga tayaniladi. Olimning yozishicha, 困难, 合作 [kùnnán, hézuò,] “*qiyin, hamkorlik qilmoq*” kabi so‘zlar gapda ega vazifasida kelganda sifat yoki fe‘l ma‘nosidan abstrakt otga – “*qiyinchilik, hamkorlik*” ma‘nolariga o‘zgaradi. Uning ta‘kidicha so‘zning gapdagi o‘rni, uning gap strukturasiidagi vazifasiga qarab aniqlanadi⁸. 1962-yilda 黎锦熙 Li Dzingsi sitaksisda so‘z turkumlarining o‘rni haqida alohida qayd etib o‘tgan⁹. 黎锦熙 Li Dzingsining fikri aslida, 马建忠 Ma Dzyanjongning “so‘zning asosiy ma‘nosi yo‘q, shuning uchun aniq so‘z turkumiga tegishli emas”, 刘复 Liu Funing “so‘zning konversion xususiyat”i bilan bog‘liq qarashlarining davomi hisoblanadi. 刘世儒 Lyu Shiru ham “Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi ma‘ruzalari” asarida 黎锦熙 Li Dzingsining “Bitta so‘z, shubhasiz, ikkita so‘z turkumiga tegishli bo‘la oladi” degan qarashini davom ettirgan¹⁰.

Ikkinchisi, 吕叔湘 Lyuy Shusyang so‘zning bir nechta so‘z turkumiga tegishli bo‘la olishini “asosiy vazifa” va “muvaqqat vazifa” bilan bog‘laydi. Masalan, ot so‘z turkumiga tegishli so‘z – so‘z birikmasida boshlang‘ich ma‘noda, gap strukturasiida esa ega bo‘lib keladi. Shuningdek, fe‘ldan keyin kelib gapni tugallaydigan yoki to‘ldiradigan so‘z sifatida qo‘llanadi. Fe‘l gap strukturasiida ko‘pincha kesim vazifasida uchraydi, sifat esa so‘z birikmasida aniqlovchi yoki gap strukturasiida kesim bo‘lib keladi. Ularning bulardan tashqari bajaradigan barcha vazifalari “muvaqqat vazifa” hisoblanadi¹¹. 吕叔湘 Lyuy Shusyangning ishlarida sifat yoki fe‘lning ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelish holatlari ham bor. Uning hisoblashicha, sifat yoki fe‘l bu o‘rinda otning funksiyasini bajaradi. Ot yoki sifat gapda kesim bo‘lib kelishi va to‘ldiruvchini bilan birikishi holatida fe‘l vazifasini bajaradi.

NATIJA VA MUHOKAMA. So‘zlarning “faol vazifa”si bo‘yicha fikrni avvalroq 陈承泽 Chen Chengze ilgari surgan. U so‘z turkumlari va gap bo‘laklarini ikkita katta kategoriyaga bo‘lib o‘rgangan. Uning fikricha, bitta gapda keladigan gap bo‘laklari har xil so‘z turkumlaridan tashkil topishi mumkin. Shuning uchun u so‘z turkumlaridagi polifunksionallik masalasida “bitta so‘z o‘zining asosiy turkumiga ega”, “so‘z turkumlarining ham tegishli so‘zlari mavjud”, degan xulosani bergan. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, so‘zning “faol vazifasi” deganda bu so‘zni osonlikcha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqa turkumga o‘zgartirish emas, balki ba‘zi mustasno holatlarda ishlatilishi mumkinligi tushuniladi¹².

Keyinchalik 吕叔湘 Lyuy Shusyangning “Uslubiy grammatika kursi” asarida bir fikrni aytib o‘tgan: “Bir so‘zning ma‘nosi o‘zgarmaganda, katta ehtimol bilan u tegishli bo‘lgan

⁸ 黎锦熙. 新著国语文法. – 长沙, 湖南新华印刷集团, 2007. – 页. 6,7.

⁹ 黎锦熙. 汉语语法初步教程. – 北京: 商务印书馆, 1959. – 页. 4.

¹⁰ 吕叔湘. 中国文法要略. – 沈阳: 辽宁教育出版社, 2002. – 页. 25.

¹¹ O‘sha manba. – 页. 25.

¹² 陈承泽. 国文法草创. – 北京: 汉语语法丛书, 1982. – 页. 6580.

so‘z turkumi ham o‘zgarmaydi va so‘zning so‘z turkumlari bilan farqlanishi muhim deb sanaladi¹³. 1962-yilda Pekin universiteti chop etgan “Hozirgi zamon xitoy tili” asarida ham so‘zning har xil kategoriyalarga tegishliligi haqida aytib o‘tilgan.

Uchinchi qarash namoyondasi 王力 Vang Li bo‘lib, u so‘zni ikki va undan ortiq so‘z turkumiga tegishli bo‘la oladi, deb aytib o‘tgan. Lekin ular orasida mazmun jihatdan katta farq bo‘lishi kerakligini, shundagina har xil so‘z turkumi deb hisoblanishini ta’kidlagan. Masalan: 抓住把, 不然车就倒了 [Zhuāzhù bǎ, bùrán chē jiù dǎo le] “*Rulni mahkam ushlab ol, bo‘lmasa mashina ag‘darilib ketadi*” jumlasidagi 把 [bǎ] mashina ruli ot va 把他送到楼上去 [Bǎ tā sòngdào lóushàng qù] “*Uni binoni tepasiga kuzatib qo‘y*” jumlasidagi 把 [bǎ] old ko‘makchi vazifasida *U (olmosh 3-shaxs, birlik) to‘ldiruvchisi bilan birikib, 把他 [bǎ tā] “Uni” degan ma’noni anglatib kelgan.*

A.A. Karimov 把 “bǎ” iyeroglifiga shunday izoh bergan: “Xitoy tilida 把 “bǎ”ning fe‘l yoki old ko‘makchi ekanligini ajratib olish uchun gapdagi o‘rniga qaraladi, 把 “bǎ” iyeroglifidan keyin turuvchi to‘ldiruvchi ikkinchi pozitsiyada, ya’ni ega va kesim o‘rtasida kelsa old ko‘makchi vazifasini bajaradi”¹⁴.

Yana bir misol keltirsak:

我在 [Wǒ zài] *men shu yerdaman* jumlasida 在 [zài] “*joylashgan, bor degan*” ma’noni, 我在家读书 [Wǒ zài jiā dúshū] “*Men uyda kitob o‘qiyapman*”da esa 在 [zài] “-da” ma’nosida old ko‘makchi bo‘lib keladi, ya’ni 在家 [zài jiā] “*uyda*” degan ma’noni anglatadi. Ular mazmun jihatdan bir-biriga yaqin, shuning uchun har xil so‘z turkumiga kiritilmaydi¹⁵. 王力 Vang Li dastlab bir so‘zning turli so‘z turkumiga tegishliligini rad etgan, u bergan ko‘pgina misollar har xil ma’noli so‘z va so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan. 王力 Vang Lining bu qarashiga Otto Yespersenning ta’limoti ta’sir ko‘rsatgan. 吕叔湘 Lyuy Shusyangning aytishicha, 王力 Vang Li, Yespersenning tadqiqotlarida so‘z turkumi va gap bo‘laklari o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilganini ko‘rgan. Lekin keyinchalik 王力 Vang Lining fikri o‘zgargan, u muayyan so‘zning mohiyatidan qat’iy nazar har xil so‘z turkumiga tegishli bo‘la olishini tan olgan.

Biz ham 吕叔湘 Lyuy Shusyangning mulohazasiga qo‘shilamiz. Chunki, xitoy iyeroglifining ko‘pvazifaviyligi shundaki, muayyan so‘z bitta vaziyatda A so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa, ikkinchi holatda B so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, bitta so‘z ham A, ham B so‘z turkumi vazifasida qo‘llanadi.

拿把锁把门锁上。 [Ná bǎ suǒ bǎ mén suǒshàng.] – *Qulfni olib eshikni qulfladi.* Bu gapda birinchi 把 [bǎ] hisob so‘zi “dona” ma’nosini anglatgan, ikkinchi 把 [bǎ] esa old ko‘makchi vazifasida kelgan.


Xitoylik olim 许慎 Syushenning qadimgi 说文解字 [Shuōwén jiězì] – “Iyerogliflar

¹³ 吕叔湘, 朱德熙. 语法修辞讲话. – 北京: 商务印书馆, 1952/1979. – 页. 23.

¹⁴ Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлили]: филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 139.

¹⁵ 王力. 汉语语法纲要. – 北京: 中华书局, 2015. – 页. 315-327, 89

izohi” lug‘atida 把 “bǎ”ni *ushlamoq, qo‘l bilan olmoq* ma‘nolari ko‘rsatib o‘tilgan¹⁶. 把 “bǎ” iyeroglifida 手 [shǒu] – qo‘l kaliti bor bo‘lib, bu kalit iyeroglifning yonida kelsa “扌” tarzida yoziladi, odatda, qo‘l va qo‘l harakati bilan bog‘liq iyerogliflarda uchraydi¹⁷. Bundan bilishimiz mumkinki 把 “bǎ” ham qo‘l va qo‘l harakati bilan bog‘liq iyeroglif hisoblanadi.



Ushbu tasvir orqali anglash mumkinki ilonni tutishda qo‘l bilan mahkam ushlab kerak bo‘lgan. Bu tasvir 把 “bǎ”ning iyeroglif va so‘z sifatida shakl va ma‘no jihatdan shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

XULOSA. Xitoy tilidagi ko‘pgina ishlarda, kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarda 把 “bǎ”ning fe‘l, hisob so‘zi, old ko‘makchi, ot sifatida (把 “bà”) kelishi qayd etilgan. Izlanishlar natijasida uchinchi ohangdagi 把 “bǎ”ning ko‘makchi, ot bo‘lib kelish holati ham kuzatildi. Masalan: 现代汉语词典 [Xiàndài hànyǔ cídiǎn] – “Zamonaviy xitoy tili lug‘ati”da uchinchi ohangdagi 把 “bǎ” fe‘l, ot, hisob so‘zi, old ko‘makchi, yordamchi so‘z, to‘rtinchi ohangdagi 把 “bà” esa ot sifatida e‘tirof qilingan¹⁸. 吕叔湘 Lyuy Shusyangning 现代汉语八百词 [Xiàndài hànyǔ bābǎicí] – “Hozirgi xitoy tilida 800 ta so‘z” qo‘llanmasida uchinchi ohangdagi 把 “bǎ”ning hisob so‘zi, old ko‘makchi ma‘nosi yoritilgan¹⁹. 学汉语词典 [Xué hànyǔ cídiǎn] – “Xitoy tilini o‘rganish lug‘ati”da uchinchi ohangdagi 把 “bǎ”ning ot, fe‘l, hisob so‘zi, old ko‘makchi, to‘rtinchi ohangdagi 把 “bà”ning esa ot vazifasida ishlatilishi izohlangan²⁰. Xitoycha-Ruscha katta lug‘atda uchinchi ohangdagi 把 “bǎ”ning mustaqil so‘z turkumidan fe‘l, ot, hisob so‘zi, yordamchi so‘zlardan old ko‘makchiga tegishli ma‘nolari tavsiflangan. To‘rtinchi ohangdagi 把 “bà”ning ot so‘z turkumiga xos so‘z sifatida ma‘nosi mavjud²¹. 古代汉语词典 [Gǔdài hànyǔ cídiǎn] – “Qadimgi xitoy tili lug‘ati”da 把 “bǎ”ning yana “pá” degan o‘qilishi ham borligini kuzatdik²².

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 黎锦熙. 新著国语文法. – 长沙, 湖南新华印刷集团, 2007. – 页. 6,7.

¹⁶ 董玉芝. 说“把”. – 新疆: 新疆教育学院学报, 2007, Vol.23. – №3. – 页. 74.

¹⁷ Xasanova F.M. Xitoy yozuvi iyeroglifakasi asoslari. – Toshkent: TDIIV, 2015. – B. 109-110.

¹⁸ 现代汉语词典. 第七版. – 北京: 商务印书馆, 2016. – 页. 19-21.

¹⁹ 吕叔湘. 现代汉语八百词. – 北京: 商务印书馆, 1999. – 页. 52-56.

²⁰ 鲁健骥, 吕文华. 学汉语词典. – 北京: 商务印书馆, 2006. – 页. 9.

²¹ <https://bkrs.info/slovo.php?ch=%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%87%D0%B8%D0%BA>

²² 古代汉语词典. 商务印书馆国际有限公司. – 上海海笛 // <http://haidii.com/>

2. Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлили]: филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 139.
3. 黎锦熙. 汉语语法初步教程. – 北京: 商务印书馆, 1959. – 页. 4.
4. 吕叔湘. 中国语法要略. – 沈阳: 辽宁教育出版社, 2002. – 页. 25.
5. 陈承泽. 国语法草创. – 北京: 汉语语法丛书, 1982. – 页. 65-70.
6. 吕叔湘, 朱德熙. 语法修辞讲话. – 北京: 商务印书馆, 1952/1979. – 页. 23.
7. Xasanova F.M. Xitoy yozuvi iyeroglifikasi asoslari. – Toshkent: ТДШУ, 2015. – В. 109-110.
8. 王力. 汉语语法纲要. – 北京: 中华书局, 2015. – 页. 315-321.
9. 董玉芝. 说“把”. – 新疆: 新疆教育学院学报, 2007, Vol,23. – №3. – 页. 74.
10. 现代汉语词典. 第七版. – 北京: 商务印书馆, 2016. – 页. 19-21.
11. 吕叔湘. 现代汉语八百词. – 北京: 商务印书馆, 1999. – 页. 52-56.
12. 鲁健骥, 吕文华. 学汉语词典. – 北京: 商务印书馆, 2006. – 页. 9.

KOGNITIV METAFORALARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISH XUSUSIYATLARI <i>Ergasheva Gulshod Salomiddin qizi</i>	706
QISQA NASRDA KONFLIKT IFODASI <i>Kulmuhamedova Lobar Anvarjonovna</i>	713
INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA PARALINGVISTIK VOSITALARNING QO‘LLANILISHI <i>Dehqonboyeva Madina Ablayor qizi</i>	717
ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR”, OYBEKNING “BOLALIK” QISSALARIDA OILA, MAKTAB VA ADABIY MUHIT <i>Abduvahob Zaripov</i>	720
ENGLISH LANGUAGE AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES <i>Ernazarova Khilola Ergashevna, Roziqaliyeva Ziyodaxon Muhammadjon qizi</i>	726
MATN KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK NAZARIYA SIFATIDA <i>Davurova Umida Jo'raqul qizi</i>	730
MUQIMIY, FURQAT VA MUHYI HAMD G‘AZALLARIDA ILOHIY ISHQ TALQINI <i>Karimova Nilufar Majidovna</i>	737
THE STUDY OF LANGUAGE AND SOCIETY RELATIONS IN LINGUISTICS: HISTORICAL, THEORETICAL AND INTEGRATIVE PERSPECTIVES <i>Karimov Rivojiddin Gulamjonovich</i>	743
COMMUNICATIVE INTENTION AND PERSUASIVE STRATEGIES IN ECONOMIC TEXTS: A LINGUOPRAGMATIC APPROACH <i>Tursunmuradova Aziza Saidaliyevna</i>	755
LINGUOCULTURAL REPRESENTATION OF RESPECT IN JAPANESE AND UZBEK: A SOCIOPRAGMATIC PERSPECTIVE <i>Urokov Sherbek Tog‘aymurodovich</i>	760
KONSEPTLARNI LINGVOKOGNITIV TAVSIFLASH TAMOYILLARI <i>Nargiza Maxsudova Aslanbekovna</i>	765
ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ПРЕДЛОЖНЫХ КОНСТРУКЦИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА И ИХ СООТВЕТСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ <i>Аскарова Маржона Хамза кизи</i>	770
ЛИНГВОАКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ПЕРЕВОД НРАВСТВЕННЫХ СМЫСЛОВ В ПОВЕСТЯХ А. П. ЧЕХОВА <i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	776
NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING ILIMIY TADQIQI <i>Пердебаева Шахноза Абат қызы</i>	781
XITOIY TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z TURKUMLARI MASALASI VA 把 “BA” IYEROGHLIFI	